

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**THE IMPORTANCE OF WRITTEN SOURCES IN THE STUDY OF THE EARLY MEDIEVAL PERIOD OF FERGANA****Zilola Saminova***Master's student**Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Fergana, davan, dayuan, bohana, ikhshid, Bey-shi, Suy-shu, Tan shu, Orkhun Yenisey Bilga Khagan, Tun yuquq Hay chou, svilizat, Silk Road, China, Silk, Quwa, Mugtепа.

Received: 23.05.25**Accepted:** 25.05.25**Published:** 27.05.25

Abstract: This article focuses on the taxability of written sources dating back to the early medieval period of Fergana, scientific research on written sources brogan scientific analysis of the term Fergana on the basis of information given on the basis of the scientific experience of researchers, materils given by geographical location.

**FARG‘ONANING ILK O‘RTA ASRLAR DAVRINI O‘RGANISHDA YOZMA
MANBALARNING AHAMIYATI****Zilola Saminova***Magistratura talabasi**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Farg‘ona, davan, dayuan, bohana, ixshid, Bey-shi, Suy -shu, Tan shu, O‘rxun Yenisey Bilga xoqon, Tun yuquq Hay chou, svilizatsiya, ipak yo‘li, Xitoy, ipak, Quva, Mug‘tепа.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘onaning ilk o‘rta asrlar davriga oid yozma manbalar taxliliga qaratilgan bo‘lib, yozma manbalar ustida ilmiy izlanishlar olib brogan tadqiqotchilarning ilmiy tajribasi asosida berilgan ma’lumotlar asosida Farg‘ona atamasi, geografik joylashuvi bo‘yicha berilgan materillar ilmiy tahlil qilingan.

ЗНАЧЕНИЕ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ В ИЗУЧЕНИИ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ ФЕРГАНЫ

Зилола Саминова

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Фергана, Даван, Даюань, Бахана, Ихшид, Бэй-ши, Суй-шу, Тан-шу, Орхун Енисей Бильга-каган, Тун Юкук Хай Чоу, цивилизация, Шелковый путь, Китай, шелк, Кува, Муг-тепа.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется анализу письменных источников периода раннего средневековья Ферганы, а представленные материалы о термине Фергана и ее географическом положении научно анализируются на основе предоставленной информации, основанной на научном опыте исследователей, проводивших научные исследования письменных источников.

Ilk o‘rta asrlar davri Farg‘ona vodiysi o‘rganishda yozma manbalar muxim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalani bugungi kunga kelib ilmiy jixatdan o‘rganish dolzarb mavzulardan biri xisoblanadi.

Farg‘ona yozma manbalarda “O‘rta Osiyoning nodir javohiri” deya ta’rif berilganligini o‘ziyoq mintaqaning o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini ko‘rish mumkin[1]. Farg‘onaning tabiatи suv resurslarga boyligi, mo‘tadil iqlimi, unumdar tuproqlari bilan barchani o‘ziga jaib qilib kelgan.

Qadimgi Farg‘ona Choch, Sug‘d, Ustrushona kabi ulkan tarixiy-madaniy xududlardan biri sifatida tilga olinib, uning shaharsozlik madaniyatidagi munosib o‘rni sababli “Farg‘ona sivilizatsiyasi” degan nom ostida jahonda ham nom qozongan.

Farg‘onaning ilk o‘rta asrlar davriga oid manbalarda Dovon Davan (Dayyuan) atamasi sifatida qo‘llanilib kelingan bo‘lib, tadqiqotchi olimlar Davanga nisbatan yaxlit davlat uyushmasi sifatida e’tibor qaratib keladilar.

Farg‘ona tarixiy-geografik mintaqqa sifatida ilk o‘rta asrlarda asosan o‘lkaning shimoli-sharqida Yettisuv, Sharqiy Turkiston, janubi-g‘arbdan Ustrushona, Choch hududlari bilan chegaradosh bo‘lgan[2].

Farg‘ona atamasini kelib chiqishiga oid ma’lumotlar xitoy sayyohatchilar esdaliklarida va solnomalarda berilgan. Jumladan “Bey-shi” (“Shimoliy sulolalar tarixi”), “Suy-shu” (“Suy sulolası tarixi”) va “Tan-shu” (“Tan sulolası tarixi”) yilnomalarida Farg‘ona - *Boxanna* nomi ostida tilga olingan[3]. ushbu manbada vodiyning geografik joylashuvi tabiatи, o‘simlik va hayvonot dunyosi savdo sotiq aloqalariga doir ma’lumotlar singari markazlari boshqaruvchilar unvon va mansabalari xaqiada keltirilgan ma’lumotlari muhim ahamiyatga ega.

Farg‘ona tarixiga oid yozma manbalarni uch guruxga bo‘lib tadqiq qilish mumkin.

1. Xitoy tilida bitilgan yilnomalar va
2. Sayoxatchilarining asarlari
3. Sug‘d tilidagi manbalar
4. Arab, fors tilidagi manbalar

5. Turli mazmundagi bitiklar O‘rxun Yenisey Bilga xoqon, Tun yuquq bitiklaridagi materiallar

Xitoy yilnomalari: “Xan-shu”, “Bey-shi” “Suy-shu” “Tan-shu” kabi yilnomalarda Farg‘ona shaharlari va uning o‘ziga hos xususiyatlari xaqidagi ma’lumotlar keltirilgan[4].

Xitoy solnomalarida ikki daryo oralig‘idagi voha hukmdorliklariga oid ma’lumotlar ingliz, fransuz, rus, turk olimlari o‘z tillariga tarjima qilib talqin qilganlar[5].

Xitoy sayoxatchilari: Syuan Szan (629-645), Xoy Chao (726) va Du Xuan[6] (750) kabi xitoylik sayohatchilarining asli kasbi budda dini roxiblari bo‘lib, ularning o‘lka bo‘ylab sayohatlari natijasida to‘plangan materiallarida Farg‘ona va uning qo‘shti hududlariga oid ijtimoiy iqtisodiy siyosiy va madaniy aloqalari hamda shaharsozligiga doir ma’lumotlari ham o‘lka tarixini o‘rganishga hizmat qilgan.

Farg‘ona vodiysi tarixi va unga bog‘liq muammolar uzoq yillar davomida ko‘plab mutaxassislarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Ayniqsa, vodiyning eng qadimgi davrlaridan boshlab arablar istilosigacha bo‘lgan davrni o‘rganish farg‘onashunoslik sohasida hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu davr haqida yozma manbalarda ma’lumotlar juda kam uchraydi; xususan, VIII asr boshlariga qadar Farg‘ona hududida tanga muomalasi rivojlanmagani bu davrni o‘rganishda qo‘shtimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin [7].

Ilk o‘rta asrlar davri yozma manablarida Farg‘onada aholi soni ortib, 100 dan ziyod shahar shakllangani qayd etilgan[8]. Farg‘onaning shaharsozlik madaniyati tadqiq qilingunga qadar asosiy etibor qabriston-qal’a (mozor-qo‘rg‘on)lar tahliliga qaratib kelingan[9].

1. Farg‘onaning ilk o‘rta asrlar davrini o‘rganishda tasqiqotchilardan N. Y. Bichurin, A.G. Malyavkin, A. Xo‘jayev va Abduxoliq Abdurasul o‘g‘li tomonidan o‘zbek va rus tillariga tarjima qilingan “Tarixiy yodgorliklar”, “Xan sulolasining dastlabki tarixi” va “Xanlar sulolasining keyingi davr xronikasi” kabi Xitoy tarixiy manbalarida Farg‘onaga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Shu bilan birga, arab mualliflaridan al-Istaxriy(850–934) tomonidan tuzilgan “Mamlakatlar yo‘llari kitobi” (Kitob masolik al-mamalik), Ibn Hurdodbeh (820–912) asari “Yo‘llar va diyorlar kitobi” (Kitob al-masolik va-l-mamalik), hamda X asrga mansub noma’lum muallifning “Olam chegaralari” (“Hudud al-olam”) nomli asari, shuningdek, al-Muqaddasiy (946/47–1000)ning arab va fors tillaridan rus va o‘zbek tillariga tarjima qilingan geografik-ta’rixiy manbalarni keltirib o‘tish mumkin.

2. Qadimgi Sug‘d va turk runiy yozuvlarida shuningdek, teriga, toshga, sopol buyumlar sirtiga tushirilgan bitiklarda va numizmatik materiallar orqali ham Farg‘onaga oid ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga V.A. Livshits, M. M. Isxoqov, S.G. Klyashtorniy, I.L. Kizlasov, I.V. Kormushin,

D.D. Vasilyev va N. Rahmonov kabi olimlar xam Farg‘onaga oid muxim ma’lumotlarni berib o‘tganlar.

3. V-VI asrlar Farg‘ona tarixi uchun siyosiy jihatdan beqaror va murakkab davr bo‘lgan. Yozma manbalarda, mashhur Davan davlatining tarix sahnasidan yo‘qolishi haqida ma’lumotlar mavjud. Masalan, Xitoyning “Beyshi” nomli manbasining 97-bobining birinchi qismida, 436-yilga oid voqealar bayon qilinganda, Davan davlati haqida hech narsa aytilmagan. Bu esa, Davan davlatining tugatilganini anglatadi. Bir oz vaqt o‘tib, taxminan 510 - yil atrofida O‘rta Osiyoda (yoki Farg‘onada) eftalitlar davlati tashkil topadi. Ehtimol, eftalitlarning O‘rta Osiyo hududlariga kirib kelishi yuqorida eslatib o‘tilgan katta davlatlarning yirik parchalanishini tezlashtirgan. Shu payt siyosiy beqarorlik haqida Xitoy manbalari shunday yozadi: “Yuan-Wyei (386-550/557) va Jin (265-480) sulolalari hukmronligi davrida Farg‘ona hududlarining bir-biriga qarshi kurashlari davom etdi. Ularning o‘rtasida yuzaga kelgan voqealarni tushunish juda mushkul bo‘ldi”[10]. Bu davrda bir-birini tor-mor qilayotgan hududlar (mulklar) haqida yozma manbalarda juda cheklangan ma’lumotlar mavjud. Manbalarda quyidagi hududlar qayd etilgan: Chjeshe (avvalgi Qang‘li), Sharqiyo Tsao (Ustrushona), Sivan-tszin (Samarqand), Farg‘oniy Tsao (Ishtixon), Nyumi (Buxoro vodiysi), Tszyasheni - Kushaniya (Kesh), Noshe-bolo (Nakhshab) va boshqalar. Shuningdek, qo‘sni Cho‘chda beshta, Sug‘dda (Kan) esa bir nechta (9 ta) yer egaligi mavjud bo‘lib, u yerda Chjao‘u (Jabgu) urug‘i avlodlari hokimiyatni boshqarishganligi ma’lum[11].

4. V-VI asrlarda Farg‘onadagi siyosiy holat haqida yozma manbalarda juda oz ma’lumot mavjud. Shu davrga oid bitta manbada quyidagi bayonot berilgan: “Lona – qadimiy Dovon (Davan) bo‘lib, uning markazi Guyshan, Qashqarning shimoliy-g‘arbiy qismida, Daydan 14450 li masofada joylashgan. Tayxoni hukmronligi 479 - yilda amalga oshgan. Hukumdor, zodagon qizil rangdagagi otlarni (ular “qon bilan terlaydigan” deb tasvirlangan) yuborgan. Bu vaqtgacha sovg‘a-salom va elchilar doimiy yuborilgan”[12].

5. Kosan (Mug‘qala, Mug‘tepa) haqida ba’zi tadqiqotchilar, Xitoy manbalariga asoslanib, qadimgi Farg‘ona poytaxti – G‘uyshun (G‘uyshuan) bilan bog‘lanishini ta’kidlaydilar[13]. Haqiqatan ham, yozma manbalarda hukmdor qarorgohi G‘uyshun (ba’zan G‘uyshan yoki G‘esay) shahri deb ko‘rsatilgan[14]. G‘uyshuan (G‘uyshan) va umumiy Farg‘ona poytaxti shaharlari haqida A.A. Anorboyev o‘ziga xos bir nazariyaga ega. Uning fikriga ko‘ra, G‘uyshuan bir vaqtning o‘zida ikki joyda joylashgan edi: biri Eski Ahsi hududida bo‘lib, Ershi shahri keyinchalik G‘uyshuan nomini olgan; ikkinchisi esa hozirgi Koson hududida joylashib, u ham G‘uyshuan deb atalgan[15].

6. Agar manbalar batafsil o‘rganilsa, quyidagi xulosalar chiqariladi.

7. Birinchidan, G‘uyshan shahri Sirdaryo (Xitoycha Chjenchju) havzasida joylashgan bo‘lishi kerak.

8. Ikkinchidan, tahmin qilinayotgan shaharda miloddan avvalgi I asr yoki milodiy era boshlariga oid madaniy qatlamlar va qurilish izlari mavjud bo‘lishi zarur [16].

9. Uchinchidan, agar G‘uyshan, ayrim tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Sirdaryo bo‘yida joylashgan bo‘lsa, Xitoy manbalari buni albatta qayd etgan bo‘lar edi. Chunki bu katta daryo, Xitoy manbalarida yuqorida keltirilganidek, Chjenchju deb atalgan. G‘uyshan deb taxmin qilingan Muqqal’ada miloddan avvalgi asr oxirlari – era boshlariga oid madaniy qatlamlar topilmagan, III-V asrlar qatlamlari esa deyarli mavjud emas[17]. Haqiqatan ham, Muqqal’a katta emas, balki asosan mustahkamlangan qal’a yoki qo‘rg‘onni andozalovchi tuzilma bo‘lib, mahalliy aholi tomonidan buni Muqqal’a deb atashlari bema’nilik emas. Ilmiy izlanishlar olib borgan A.N. Bernshtam ham uni qarorgoh yoki harbiylar joylashgan qal’a deb belgilagani haqliydi [18]. Bundan tashqari, Muqtepani VII-VIII asr yodgorligi deb bilganlar ham mavjud[19]. Bularni inobatga olgan holda, tarixiy G‘uyshan shahrining joylashuvini aniq belgilashga urinish nihoyatda qiyin va maqsadsiz ishga o‘xshaydi, lekin bu masalani to‘liq yechimsiz qoldirish ham mumkin emas. Shuning uchun, dissertant G‘uyshan shahrining joylashuvini Shimoliy Farg‘onaning boshqa bir nuqtasida qidirish lozim deb hisoblaydi[20].

Yozma manbalarda Farg‘ona hududining kichik hukmdorlari “ikhshid” sifatida, konfederatsiyaning oliy rahbari esa “malik (malka)” deb ta’riflangan, podsho esa yuqoridagi “maliqi Farg‘ona at-Tar” degan nom bilan atalgan bo‘lishi mumkin[21]. Hukumat to‘liq eski turk hukmdorlarining qo‘liga o‘tganidan so‘ng, VII-VIII asrlarda Farg‘ona hukmdori “Jabgu Alisi”[22] bo‘lgan. 720 - yildan boshlab, Farg‘onani turk hukmdori Arslon Tarxon (Xitoyda Asilan Dagan’chu) boshqarish boshlaganligi haqida yozma manbalarda ma’lumot berilgan.

Farg‘ona, Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahasida joylashgan bo‘lib, uning strategik ahamiyati Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdoda muhim ro‘l o‘ynagan edi. Farg‘ona Xitoyga shisha, beda, paxta, otlar va bodringni yetkazib bergen. Masalan, 675 - yilgi karvonda xilma-xil shisha mahsulotlari, 741 - yilda otlar, 761 - yilda esa ilon sarg‘isi va shisha jo‘natilgan[23]. Shuningdek, Farg‘onada Xitoy ta’sirida ipak ishlab chiqarish ancha erta boshlangan va V-VI asrlarda ipak ishlab chiqarish markazi mavjud bo‘lgan. Paxta matolari esa Farg‘onadan Sharqiy Turkiston orqali Xitoyga yuborilgan. Xitoy manbalariga ko‘ra, 331 - yilda Bodé (paxtanining Xitoycha nomi) gazmoli Farg‘ona (avvalgi Davan) hukmdorlari tomonidan Shimoliy Xitoydagagi Qin sulolasi imperatori Shi Liu-ga yuborilgan[24].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Farg‘ona ilk o‘rta asrlarda ham o‘z siyosiy mavqeini saqlab qoladi. Bu xolat esa uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jixatdan qudratli bo‘lishiga sabab bo‘lgan deya takidlashimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Матбабаев Б. Қадимги фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида).: Тарих фан. доктор. дисс. – Самарқанд: ЎзФА Археологик тадқиқотлар институти, 2009. – Б. 6.
2. Бичурин Н. Я. Собрание сведений... II. – С. 258, 274, 284; Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар ... – Б. 119-123; Матбабаев Б.Х. К истории культуры Ферганы в эпоху раннего средневековья. – Ташкент: Tafakkur, 2009. – С. 91.
3. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – Москва - Ленинград: Изд. АН СССР, 1950. – Том II. – С. 274, 285; Хўжаев А. Суйшу (“Суй сулоласи тарихи”)дан (“Тан сулоласининг янги тарихи”)дан / Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия, 2/1. –Тошкент: Фан, 2014. – Б. 24.
4. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах... Том II. – С. 274.
5. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – Москва - Ленинград: Изд. АН СССР. – том I. – 1950. – 383 с.; том II. – 1950. – 335 с.; том III. – 327 с.; Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – Санкт-Петербург, 1903; Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. – İstanbul: Selenge, 2007. – 495 s.; Chavannes E. Notes additionnelles sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux // T’oung Pao. – Leide, 1904. – Serie II. Vol. II. – Р. 1–109; Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. – Новосибирск, 1989 – 431 с.; Taşag‘ıl A. Gök-Türkler. II. - Ankara, 1999 – 128 s; Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi’ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. – Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2003. – 295 s.
6. Beal S. The life of Hiuan Tsiang. – New Delhi, 1990 – 218 р; Бернштам А. Н. Тюрки и Средняя Азия в описании Хой ЧАО (726) // ВДИ. – Москва, 1952. – № 1. – С. 187–195; Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi’ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. – Ankara, 2003. – 295 s.
7. Ртвеладзе Э.В. Модели генезиса монетной чеканки в среднеазиатском междуречье // На среднеазиатских трассах Великого шелкового пути. Очерки истории и культуры. – Ташкент: Фан, 1990. С. 185-186, Матбабаев Б. Дисс. Б.6
8. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. –М. –Л.: Изд-во АН СССР, 1950А. -335 с.
9. Горбунова Н.Г. Кугайско-карабулакская культура Ферганы // СА. № 3. –М., 1983. - С. 23-46
10. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. –М. –Л.: Изд-во АН СССР, 1950А. -335 с.

11. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. –М. –Л.: Изд-во АН СССР, 1950А. -350с.
12. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. –М. –Л.: Изд-во АН СССР, 1950А. -260 с.
13. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь Шаня и Памиро-Алая // МИА. №26. –М.-Л., 1952. -346 с.
14. Helsewe A.F.P. China in Central Asia: The early stage: 125 B.C.- 23 A.D. Leiden, 1979.
15. Анарбаев А.А., 2002. О локализации столичных городов древней Ферганы // ТД МНК «Цивилизации Центральной Азии: земледельцы скотоводы. Традиции и современность». Самарканд. С.19.
16. Матбабаев Б.Х. Фарғона кадимий шаҳарларини жойлашган ўрни муаммолари // ЎИФ. № 9. – Тошкент, 1995. -77-82 бетлар.
17. Бентович И.Б. Одежда раннесредневековой Средней Азии (по данным стенных росписей VI-VIII вв.) // Страны и народы Востока. Вып. 22. -М., 1980. -С. 196-212
18. Бентович И.Б. Одежда раннесредневековой Средней Азии (по данным стенных росписей VI-VIII вв.) // Страны и народы Востока. Вып. 22. -М., 1980. -С. 196-212
19. Горбунова Н.Г. Поселения Ферганы первых веков нашей эры (Некоторые итоги исследования) // СА. № 3. –М., 1977. -С. 107-120.
20. Gorbunova N.G. The Culture of Ancient Ferghana VI century B.C. - VI century A.D. British archeological Reports. International Series 281. –Oxford, 1986. 366 p.
21. Лившиц В.А. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица (Согдийские документы с горы Муг. Вып. II) -М.,
22. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том I. –М. –Л.: Изд-во АН СССР, 1950. 381 с.
23. Шефер Э., 1981. Золотые персики Самарканда. - М.: Наука, 1981. -608 с.
24. Лубо-Лесниченко Е.И. Ткачество // Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. – М.: Восточная литература, 1995. - С. 36-91.
25. История ат-Табари. –Ташкент: Фан, 1987. –443 с.
26. Вебер В.Н. Полезные ископаемые Туркестана. М.; 1913.
27. Жуков В.Д. Отчет о работе второго отряда археологической экспедиции на строительства БФК // ТИИА АН.Уз ССР. -Ташкент., 1951. -С. 41-84.